

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BIRINCHI YARMI SAMARQAND
TARIXINI O'RGANISHDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINING
AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО
ИСКУССТВА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ САМАРКАНДА КОНЦА
XIX - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА**

**THE SIGNIFICANCE OF FINE ART WORKS IN THE STUDY
OF THE HISTORY OF SAMARKAND IN THE LATE XIX - FIRST
HALF OF THE XX CENTURY**

Rustamov Shamsiddin Salohiddin o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, Arxeologiya bo'limi
xodimi.*

Tel: +99890 604-98-88

e-mail: r_shamsiddin@mail.ru

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Samarqand tarixini o'rganishda "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida va muzeylar saqlanayotgan tasviriy san'at asarlarining Samarqand hududi tarixini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati, ushbu asarlarning tadqiq qilinishi masalalari ilmiy tahlil qilingan, taklif va mulohozalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmi, "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi, tasviriy san'at, me'moriy obidalar, bozor, kompozitsion tahlil, ikonografik tahlil, madaniy meros ob'ekti.

ANNOTATION: This article provides a scientific analysis of the role and significance of works of visual art preserved in the collections and museums of the Samarkand State Museum-Reserve in the study of Samarkand's history, as well as the issues related to the research of these works. Suggestions and considerations have been presented.

Keywords: Late 19th century – first half of the 20th century, Samarkand State Museum-Reserve, visual art, architectural monuments, bazaar, compositional analysis, iconographic analysis, cultural heritage object.

АННОТАЦИЯ: В данной статье научно проанализированы роль и значение произведений изобразительного искусства, хранящихся в фондах и музеях Государственного музея-заповедника «Самарканда», в изучении истории Самарканда, а также вопросы исследования этих произведений. Внесены предложения и соображения.

Ключевые слова: Конец XIX века – первая половина XX века, Государственный музей-заповедник «Самарканда», изобразительное искусство, архитектурные памятники, базар, композиционный анализ, иконографический анализ, объект культурного наследия.

KIRISH.

Tasviriy san'at insoniyat tarixining turli davrlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmidagi Samarqand aholisi hayoti, bu davrdagi ayrim madaniy va tarixiy voqealar tasviriy san'at asarlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu davr Samarqand tarixida Podsho Rossiysi bosqini, madaniy modernizatsiya va xalqaro madaniy almashinuv jarayonlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun mazkur davrning san'at asarlarini tahlil qilish faqat madaniyat tarixini emas, balki shahar rivojlanishining turli jihatlarini o'rghanishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tasviriy san'at asarlarining tarixiy ma'lumot berishdagi ahamiyatini aniqlash va ularning Samarqand tarixi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qilishini ko'rsatishdan iborat.

Tasviriy san'at asarlarining Samarqand tarixini o'rghanishdagi roli bir nechta omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar shaharning me'moriy yodgorliklari va ijtimoiy hayotini tasvirlashda tarixiy manba sifatida qimmatli hisoblanadi. Masalan, V.V. Vereshchagin, P.P. Benkov va boshqa tasviriy san'at

ustalarining ishlari Samarqandning XIX asrdagi qiyofasini tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, Samarqandning o‘ziga xos tabiat va madaniy merosini tasviriy san’at orqali o‘rganish shaharning xalqaro madaniy muloqotlaridagi o‘rnini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ushbu davrda yashagan mahalliy tasviriy san’at ustalari tomonidan yaratilgan san’at asarlari Samarqand aholisining turmush tarzi, urf-odatlari va iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi qimmatli ma’lumot manbaidir.

MANBALAR TAHLILI VA METODLAR.

2024-yil dekab oyi holatiga kora “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining fondida 238320 ta muzey ashyosi saqlanadi. Shulardan tasviriy san’atning turli janrlariga oid asarlar soni 5645 tani tashkil qiladi.

Mazkur fondda saqlanayotgan, shu davr mualliflari qalamiga mansub bo‘lgan tasviriy san’at asarlarining ko‘pchiligi Samarqand hududi tarixi haqida ma’lumot olishda muhim ahamiyatga ega.

Misol uchun P.P. Benkovning Samarqanddagi hayot manzaralarini aks ettiruvchi asarlari shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tahlil qilish uchun muhim vizual manbalardan biri hisoblanadi (1-rasm). XIX-XX asr boshi Samarqand tarixiga oid arxiv hujjatlari, jumladan, rasmiy hujjatlar va shahar xaritalari, tasviriy san’atda aks ettirilgan obyektlarning tarixini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi¹. V.V. Bartold va boshqa olimlarning asarlari Samarqandning madaniy tarixini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.



¹ Самаркандский музей-заповедник. Каталог произведений изобразительного искусства ХИХ-ХХ вв.

1-rasm. P.P. Benkov. Eski Samarqand.


Tasviriy san'at asarlari Samarqand hududining quyidagi jihatlarini o'rghanishda manba sifatida muhim ahamiyatga ega.

1. Samarqand hududi me'moriy va tabiiy qiyofasini aks ettirishdagi ahamiyati: XIX asr oxiri va XX asr boshida rus rassomlari tomonidan yaratilgan ishlarda Samarqandning me'moriy obidalari, bozor maydonlari va turmush tarzi tasvirlangan.

Samarqandning me'moriy yodgorliklari, masalan, Registon ansamblı, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi va Ulug'bek rasadxonasi ko'plab rassomlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu asarlar me'moriy yodgorliklarning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki ularning tarixiy kontekstini va zamonaviy holatini ham aks ettiradi.

Misol uchun, Registonning turli davrlardagi tasvirlari undagi o'zgarishlar tarixini o'rghanishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, L.Bure, V.V. Vereshchaginning ishlari Registonni XIX asr oxiridagi holatda tasvirlagan bo'lsa, P.P. Benkovning chizmalarida uning keyingi asrlardagi tiklanish holatlari aks ettirilgan (2-rasm).

Shohi Zinda majmuasi o'zining bezakli mozaikalari va maqbaralari bilan rassomlarning alohida e'tiborini tortgan. Ushbu me'moriy obyektni aks ettiruvchi asarlar o'sha davr madaniy urf-odatlarini o'rghanish imkonini beradi.



2-rasm. L.L. Bure -Sherdor, 1913-yil.

Samarqand faqat me'moriy yodgorliklari bilan emas, balki tabiiy go'zalligi bilan ham mashhur. Ko'pgina rassomlar Samarqandning tabiatini – tog'lar, bog'lar va suv havzalari manzaralarini o'z asarlarida tasvirlaganlar. Bu asarlar orqali hududning ekologik tarixi va tabiiy landshaftlaridagi ayrim o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

XIX asr oxirida Samarqanddagi bog'lar va kanallar rassomlar uchun muhim ilhom manbasi bo'lgan. Masalan, A.N. Volkov va N. K. Roerixning Samarqand manzaralarini aks ettiruvchi ishlari ushbu davrda hududning tabiiy, qishloq va shaharsozlik ko'rinishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi (3-rasm).

Samarqandni o'rabi turgan tog'larning tasvirlari, ayniqsa qishloq va shahar o'rta sidagi bog'liqlikni o'rghanishda muhim rol o'ynaydi. Bu tasvirlar orqali hududning tabiiy resurslari va aholi hayotiga ta'sirini qisman tahlil qilish mumkin.



3-rasm. A.N.Volkov. Qishloq manzarasi.

2. Madaniy va etnografik manba sifatidagi ahamiyati: Tasviriy san'atda turli millatlar, ularning kiyinish odatlari, hunarmandchilik va boshqa turmush elementlari tasvirlangan bo'lib, bu ma'lumotlar etnografik tadqiqotlarda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, L.D. Rozenberg asarlarida mahalliy aholining ipak, baxmal va adres matolaridan tikilgan kiyimlari chizilgan. Erkaklarning do'ppisi va ayollarning milliy liboslari aks ettirilgan. Ushbu asarlar orqali Samarqand xalqining kiyinish madaniyatidagi xususiyatlarni tushunish mumkin.

N. Karazin, V. Vereshchagin va P.P. Benkovning Samarqand bozoridagi turli millat vakillarini tasvirlovchi asarlari orqali o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar va boshqa etnik guruhlarning kiyinish madaniyati faoliyatini o‘rganish mumkin.
(4-rasm)



4-rasm. P.P. Benkov. Shohi Zindadagi

rassomlar.

3. Ijtimoiy hayotni o‘rganishdagi ahamiyati: Tasviriy san’at asarlar orqali shahar aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, faoliyati va kundalik hayot manzaralarini kuzatish mumkin. Masalan, P.P. Benkov o‘z asarlarida bozor sahnalari, qishloq hayoti va milliy bayramlarni aks ettirgan. Uning asarlari orqali o‘sha davrdagi mahalliy kiyim-kechak, ijtimoiy munosabatlar va an’analarni o‘rganish mumkin.

A.N. Volkov va N. Karazinning asarlarida Samarqanddagi to‘y marosimlari va xalq o‘yinlari aks ettirilgan, o‘sha davrdagi xalq an’analari va marosimlarning tafsilotlari ko‘rsatilgan, uy-joylar tuzilishi va ichki bezaklari orqali aholi turmush tarzi haqida bat afsil ma’lumot berilgan.



4-rasm. A.N.Volkov. To'y.

Tasviriy san'at asarlari jamiyatning madaniy diversifikatsiyasi (o'zgarish, xilma-xil taraqqiyoti)ni aks ettiruvchi va uni tahlil qilish imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmida Samarqand hududi ko'plab madaniyatlar chorrahasida joylashgan bo'lib, bu holat tasviriy san'at asarlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar shahar hayotining turli jihatlarini, etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, madaniy o'zgarishlarni va diversifikatsiya jarayonlarini tasvirlash uchun foydalanilgan.

Masalan, V.V. Vereshchaginning Samarqandda yaratilgan asarlari shahar bozorlarida uchraydigan turli millat vakillarini o'ziga xos tafsilotlar bilan tasvirlaydi. Bu asarlar o'sha davrning madaniy tahlilida muhim ahamiyatga ega.

Samarqanddagi tarixiy obidalar turli xalqlar qurilish uslublari ta'sirini o'zida mujassam qilgan. Bu me'moriy obyektlar tasviriy san'atda ham o'z aksini topgan.

Masalan, Shohi Zinda majmuasi va Bibixonim masjidi me'morchiligidagi arab, fors va mahalliy uslublarning uyg'unligi rassomlar tomonidan alohida qayd etilgan.

Ushbu asarlar orqali shahar arxitekturasidagi madaniy integratsiya jarayonlarini o'rghanish mumkin.

XIX-XX asrlar davrida Samarqandning turli guruhlariga xos urf-odatlar, bayramlar va ijtimoiy hayot tasviriy san'atda keng yoritilgan. P.P. Benkovning Samarqanddagi oilaviy bayramlar yoki mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi ishlari ijtimoiy hayotning turli jihatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Tasviriy san'atni tarixiy manba sifatida o'rganishda bir qator tahlil usullari qo'llaniladi:

1. Kompozitsion tahlil usuli: Tasviriy san'at asarlardagi elementlarning joylashuvi va ularning muvofiqligi orqali rassomning qanday tarixiy voqealarni aks ettirishga harakat qilganligini aniqlash mumkin.

2. Ikonografik tahlil usuli: Asarlardagi ramz va belgilarni tadqiq qilish orqali ular ortidagi tarixiy va madaniy ma'nolarni aniqlash mumkin. Masalan, Samarqanddagi masjidlar va minoralarning tasviri ularning tarixiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

3. Binolar, me'moriy obidalarning o'zgarishini o'rganish usuli: Tasviriy san'at orqali Samarqand me'moriy obidalarining vaqt o'tishi bilan o'zgarganligi yoki qayta tiklanganligini kuzatish mumkin.

Misol uchun V.V. Vereshchaginning asarlari Samarqandning me'moriy yodgorliklarini realistik uslubda tasvirlashga intilgan, bu esa tarixchilar uchun me'moriy obyektlarning o'sha davrdagi holatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. P.P. Benkovning asarlari orqali Samarqandda yashagan aholi turmush tarzi va milliy liboslari haqida ma'lumot olish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Samarqand tarixini o'rganishdagi ushbu yondashuvlar hududning XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini tasavvur hamda tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Har qanday tarixiy manba kabi, tasviriy san'at asarlardan manba sifatida foydalanishda ham kamchiliklar mavjud. Birinchidan, rassomning subyektiv qarashlari yoki san'at asarlарining idealizatsiyasi real voqelikni to'liq aks ettirmasligi mumkin. Ikkinchidan, tasviriy san'atdagi detallarning tarixiy aniqligini arxiv materiallari bilan solishtirish zarurati mavjud.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Samarqand tarixi bo‘yicha tadqiqotlarda tasviriy san’at asarlarining ahamiyati hanuz etarli darajada chuqr o‘rganilmagan. Tasviriy san’at Samarqandning XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmi tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, bu manbalar zamonaviy tarixshunoslik, muzeeyshunoslik, manbashunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida yangi yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Ushbu davrda Samarqandda yuz bergen madaniy, ijtimoiy va arxitektura sohasidagi o‘zgarishlar tasviriy san’at asarlarida keng yoritilgan. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Tasviriy san’at Samarqandning madaniy xilma-xilligi, etnik aloqalari va ijtimoiy jarayonlarini hujjathashtirishda muhim rol o‘ynagan. San’at asarlari tarixiy obidalar, kundalik hayot va shahar me’moriy uyg‘unligining vizual hujjati sifatida xizmat qiladi.

Samarqand hayotiga oid tasviriy san’at asarlari turli xalqlar madaniyatlarining birlashuvi va o‘zaro ta’sirini namoyon etadi. Rassomlarning asarlari orqali turli millatlarning kiyimlari, me’moriy obidalari va ijtimoiy hayotini o‘rganish mumkin. Bu tarixiy jarayonlarni batafsil tushunish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Samarqandning me’moriy yodgorliklari va tabiat manzaralari nafaqat madaniy meros, balki ijtimoiy va diniy hayotning rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynagan. Tasviriy san’at ushbu obyektlarning tarixiy holatini saqlab qolish va ularni tiklash uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Бартолд В.В. История культурной жизни Средней Азии. Москва: Наука, 1927.
2. Бенков П.П. Картины и гравюры Самарканда. Москва: Искусство, 1910.
3. Бенков П.П. Творчество в Самарканде. Москва: Искусство, 1915.

4. Верещагин В.В. Регионы и их архитектура. Москва: Искусство, 1898.
5. Бахшиев А. Тасвирий санъат ва тарихшунослик. Тошкент: Академия, 2008.
6. Назаров Р.Х. Социально-экономическое развитие Самарканда в XIX - начале XX вв. Ташкент: Узбекистан, 1980.
7. Самаркандский музей-заповедник. Каталог произведений изобразительного искусства XIX-XX вв.
8. ЮНЕСКО. Самарканд: перекресток культур. Париж: ЮНЕСКО Пресс, 1994.
9. Роерич Н.К. Самаркандские пейзажи. Москва: Искусство, 1930.
10. “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti. Samarqand, 2025-yil.
11. Назаров Р.Х. Самарканд в историческом контексте. Ташкент: Узбекистан, 1985.
12. Ҳусанов Р. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихи. Тошкент: Фан, 1995.